

NEYTRAL BAHOLI SO'ZLAR VA ULARDA BAHO IJOBIYLASHUVINING PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Umarova Zumradxon Avazxon qizi

Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21033742>

Annotatsiya

Til fikr ifodalashning muhim va qulay vositasi sifatida insonlarga xizmat qilib keladi. Tilshunoslar tilning muloqot vositasi vazifasini bajarishini uning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan omillar bilan bog'lashadi, ya'ni insonlarning bir-biri bilan so'zlashish zarurati tilning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan deb hisoblashadi. Tilning paydo bo'lishi haqidagi bir necha nazariyalarning bittasi sifatida ushbu qarash ham tilshunoslik nazariyasida amal qilib keladi. Shu jihatdan olib qaraganda insonlarning fikr ifodalash, bir-biri bilan so'zlashish istagi qatorida insonlarning bir-biriga o'z his-tuyg'ularini yetkazishi, o'zining subyektiv munosabatini ifodalashi ham fikr almashish kabi zarurat masalasi sifatida paydo bo'lgan deyish mumkin. Insonlar tirik mavjudot bo'lganlari, atrofida ro'y berayotgan voqea-hodisalardan ta'sirlanganlari sababli ham o'z his-tuyg'ularini kimgadir bildirishi kerak bo'lgan. Ushbu jarayonda esa til orqali subyektiv munosabat, voqelikka neytral, ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalashni o'rganganlar.

Kalit so'zlar: *baho kategoriyasi, baho ijobiylashuvi, neytral baho, amelioratsiya, subyektiv munosabat.*

Insonning voqelikka, undagi xatti-harakatlarga munosabati faqat ijobiy yoki salbiy bo'lmaydi. Insonning munosabati neytral ham bo'ladi. Tildagi neytral baholi so'zlar mana shunday neytral munosabatning ifodalovchi vositalardan biri sifatida yuzaga kelgan. Neytral baholi so'zlar o'zining semantik strukturasida neytral baholi semalarni – ma'no bo'lakchalarini joylashtirib olgan. Mazkur ma'no bo'lakchalari undan foydalanuvchi insonlarning til xotirasida tayyor imkoniyat sifatida turgani sababli ulardan nutqiy faoliyatda foydalanish mumkin bo'ladi. Inson nutqiy vaziyat talabidan kelib chiqib, so'zlarni pragmatik ma'noda qo'llagani kabi pragmatik bahoda ham ishlatadi. Bunday pragmatik baholar nutq vaziyatida yuzaga chiqqani sababli ularni nutq vaziyati misolida aniqlanadi.

Neytral bahoning ijobiylashuvining tabiati, boshqa turdagi baho konversiyasi kabi, pragmalingvistik nuqtayi nazardan o'rganilganda to'liq ochib beriladi. Til birligining mavjud bahosini muvofiq nutq vaziyatida o'zgartirishi sof lingvistik tahlillar orqali aniqlana olmaydi. Xususan, adresant munosabatiga mos ijobiy bahoni aslida ijobiy baholi bo'lmagan birlikda tushuncha bilan konseptuallashtirish kognitiv va pragmalingvistik jarayonlardir. Shu jihatdan olib qaraganda, pragmalingvistik tahlilni lisoniy birlikning nutqiy vaziyatda qo'llanishi, nutq egasining shu til birligiga munosabatini ham hisobga oladigan tadqiqot tarzi desa bo'ladi. Boshqacha aytganda, pragmalingvistik tahlilda tadqiqotchining asosiy e'tibori ma'lum bir til birligining lingvistik qiymatiga emas, balki nutqiy qiymatiga qaratiladi. Neytral bahoning ijobiylashuvini ham shunday o'rganish kerak bo'ladi.

So'zlarning pragmatik ma'nosi nutq vaziyatiga bog'liq bo'lganidek pragmatik bahosi ham nutq vaziyatiga bog'liq bo'lishi mumkin. Bahoning pragmatikligi adresantning aniq nutq vaziyatida turgan holda so'zlarni ma'lum bir baholarda qo'llayotgani, baholash aktini ma'lum bir nutq vaziyati ichida amalga oshirayotgani ham hisoblanadi. Nazariyotchi tilshunos N.D. Arutyunovanning quyidagi fikri yuqorida aytib o'tilgan bahoning lingvopragmatikligini

tasdiqlaydi, pragmatik bahoning har doim inson va nutq vaziyati aspektida aniqlanishini isbotlaydi: “Baholash insonning jismoniy va psixologik tabiati, uning mavjudligi va sezgi olami bilan belgilanadi; u inson tafakkuri va faoliyatini, boshqa odamlar hamda real voqe’likdagi narsalarga bo’lgan munosabatini belgilaydi...”¹

Baholashning nutq vaziyatiga bog’liq bo’lishini Y.I. Yemelyanova ham tasdiqlab, quyidagilarni yozadi: “Baholashning alohida bir shaxsiy sohaga ega emasligi fakti – shaxsning asosiy jihatlari xususiyatlarini ham belgilaydi. Zamonaviy aksiologik tadqiqotlarda bunday jihatlarga, odatda, ratsional (aqliy), emotsional (hissiy) va irodaviy sohalar kiradi. Shu bilan birga, I.V. Chekulay ta’kidlaganidek, qadriyat ma’nosining ifoda usullari turli tildagi dunyo tasvirlarida nafaqat til birliklarining shakllanishi va faoliyat yuritishidagi strukturaviy xususiyatlar bilan, balki har bir til jamoasining o’ziga xos taraqqiyot yo’li bilan ham farqlanadi”².

Olima fikrining so’nggi qismlari pragmatik bahoning ijtimoiy xoslangan bo’lishi mumkinligi, jamiyatda o’rnashgan qoidalar, ijtimoiy odoblarga muvofiq tushishi lozimligiga ham ishora qiladi. Pragmatik baho, uning salbiy yoki ijobiy baho ekanligidan qat’i nazar, sotsial aloqadorligi bo’lishidan xabardor qiladi. Okkazional baho qanday xususiyatli bo’lmasin, undagi pragmatiklikni o’sha bahoda tushuniladigan jamiyatdan yoki ijtimoiy kontekstdan ajratib o’rganib, tushunib bo’lmaydi. Masalan, hozirgi kunda o’zbek lingvomadaniyatida neytral bahoda talqin qilinadigan bir qator *mehnat*, *boy*, *mulk*, *mulkdor*, *plyuralizm* kabi so’zlar sobiq ittifoq davri matbuotida ijobiy yoki salbiy bahoda talqin qilingan. *Mehnatga – shon-sharaflar!* shiorida lingvistik jihatdan neytral baholi *mehnat* so’zida baho ijobiylashuvi yuz bergan. Mazkur so’zlarning baho o’zgarishi bilan bog’liq pragmatik xususiyatlarini o’zbek jamiyati shakllangan tasavvurlarga asoslanibgina to’g’ri tushuntirish mumkin bo’ladi.

Neytral baho ham ijobiy va salbiy baholar kabi til birligi, xususan, so’z semantikasining ajralmas komponenti hisoblanadi. Bunday baho yordamida ham nutq akti, undagi voqealar, harakatlarga adresant tomonidan baho beriladi. Tadqiqotchi A.Y. Vatina izidan borib, yanada aniqlashtiradigan bo’lsak, “Baholash aktining xarakteri nutq subyektning baholanayotgan obyektga nisbatan ijobiy, salbiy yoki neytral munosabatini bildiradi. Neytral baho esa “yaxshi/yomon” baholash shkalasining markaziy nuqtasini tashkil etadi. Nutq vaziyati talabi bilan neytral baho ijobiy yoki salbiyga aylanishi mumkin”³. Iqtibosdan ham ko’rinib turibdiki, til birliklaridagi neytral baho konkret nutq aktlarida ijobiy yoki salbiy bahoda namoyon bo’lishi, baholash shkalasining markazidan yo chapga, yo o’ngga tomon siljishi mumkin ekan. Neytral bahoning ijobiy bahoga tomon siljishi ham (salbiy bahoga tomon siljigani kabi) adresantning aniq nutq aktidagi maqsadi asosida amalga oshiriladi.

Til birligidagi neytral bahoning ijobiylashuvi jarayoni har bir tilning umumkategorial, o’zgaras, barqaror imkoniyati hisoblanadi. Har qanday tilda, o’zbek, ingliz yoki rus tilida bo’lsin, turli so’z turkumlariga mansub neytral baholi lisoniy birliklar adresant kommunikativ maqsadiga muvofiq bo’lgan nutq vaziyatlarida bahosini ijobiylashtira oladi. Adresant nutq vaziyatida turib muayyan so’zni o’zi istagan bahoda ifodalashga harakat qiladi. Ayniqsa, badiiy

¹ Арутюнова Н.Д. Об объекте общей оценки // Вопросы языкознания, 1985. – №3. – С. 5.

² Емельянова Ю.И. Способы выражения оценки в научном лингвистическом дискурсе (на примере публикаций 30-х гг. XX в.) // Вестник ЧГПУ, 2010. – №2. – С. 213.

³ Ватина А.Е. Особенности семантики бисубстантивных предложений с нейтрально оценочным значением // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Русская филология, 2022. – №1. – С. 7.

soʻz ustalari, yozuvchi va shoirlar tilning bu kabi umumkategorial imkoniyatlaridan faol foydalanadilar. Xususan, oʻzbek tilidagi “*dahshat chiroyli*”, rus tilidagi “*ужасно красиво*”, ingliz tilidagi “*terribly beautiful*” birikmalarida “*dahshat*”, “*ужасно*”, “*terribly*” soʻzlari neytral baholi soʻzlar hisoblanadi, ammo yuqoridagi birikmalarda bahosini ijobiylashtirgan. Uchala tildagi sinonimlarning ham *chiroyli* maʼnosidagi soʻz bilan birikib kelib, ijobiy bahoda qoʻllanayotganligi neytral bahoning konkret nutq sharoitida bahosini oʻzgartirishini har bir tilga xos boʻlgan umumkategorial imkoniyat ekanligini asoslaydi. Shuningdek, “*It’s awfully nice of you – Bu siz tomonigizdan juda ham yaxshi ish*”, “*She sings awfully well – U dahshatli darajada yaxshi kuylaydi*” kabi gaplarda ham ingliz tili egalarining bahoni ijobiylashtirish jarayoni kuzatiladi.

Tilda subyektiv baholash aqliy-ruhiy faoliyat sifatida shunday yuz beradiki, baholashning amalga oshishi bilan adresant oʻz tajribasiga koʻra baholayotgan narsa-hodisa yoki harakat-holatning nutqiy ahamiyatli ekanligini bildirmoqchi boʻladi. Adresantning bahosi shunchaki maʼlum bir obyektga nisbatan munosabatini bildirishgina emas, balki kontekstdagi muhim boʻlak sifatida koʻrsatish ham hisoblanadi. Baholash jarayoni har qanday tilda yuqoridagidek xususiyatga ega aqliy-ruhiy faoliyat sifatida yuzaga chiqadi. Bizning tadqiqotlarimiz natijasida baholash jarayoni neytral bahoning ijobiylashuvi bilan sodir boʻlganda salbiy bahoning ijobiylashuviga nisbatan farqli amalga oshishini koʻrsatdi. Boshqacha aytganda, muvofiq nutq vaziyatida neytral baho ijobiylashib namoyon boʻlgandagi subyektivlik salbiy baho ijobiylashib namoyon boʻladigan subyektivlikka qaraganda kuchsizroq boʻladi. Ushbu jihat til birligidagi nutqqacha oʻrnashgan baho bilan bogʻliqdir. Neytral bahoning ijobiylashuvining pragmalingsvistik xususiyatlarini aniqlashda bu ham muhim hisoblanadi.

Maʼlumki, neytral bahoning shakllanishiga grammatik va leksik omillar ham taʼsir qiladi. Neytral munosabatni oʻzida mujassam etgan asosiy semantik birliklar – bu tipiklik, oddiylilik, ahamiyatsizlik, oʻrtacha koʻrinish hamda haqiqat/fakt holatini ifodalovchi maʼnolardir. Biroq aksariyat hollarda neytral baho oʻz holatini yoʻqotib, baholash shkalasi boʻyicha ijobiy yoki salbiy tomonga siljishi mumkin. Bunday oʻzgarishga koʻplab omillar, jumladan, matnning chop etilgan joyi va vaqti, uning qanday oʻqilishi, shuningdek, muallif va oʻquvchining subyektiv munosabati — bu munosabat esa jins, yosh, ijtimoiy holat, siyosiy qarashlar kabi ijtimoiy-demografik omillar bilan belgilanadi⁴. Shu maʼnoda *kapital*, *kapitalizm*, *kapitalist*, *reaksion* soʻzlari mustaqillikdan avvalgi davrlar matbuotida tamoman salbiy bahoda qoʻllanar edi. Masalan, buni *kapital* soʻziga sunʼiy “tirkalgan” “kapitalistlar qoʻlida markazlashgan va yollanma mehnatni, asosan, ishchilarni ekspluatatsiya qilish yoʻli bilan qoʻshimcha qiymat hosil qilish va uni oʻzlashtirish quroli boʻlib xizmat qiladigan vositalar majmuyi”, *kapitalizm* soʻziga berilgan “hamma ishlab chiqarish vositalari yollangan ishchilarni ekspluatatsiya qiluvchi kapitalistlar sinfining xususiy mulki hisoblanadigan ijtimoiy tuzum”, *kapitalist* soʻziga “tiqishtirilgan” “burjuaziya jamiyatida hokim sinfnining vakili, yollanma ishchilarni ekspluatatsiya qiluvchi kapital egasi” kabi izohlarda ham koʻrish mumkin⁵.

Til tizimida neytral bahoning ijobiylashuvi pragmalingsvistik hodisa ekanligi isbot talab qilinmaydigan jarayondir. Har bir tilning neytral baholi birliklari oʻz bahosini kommunikativ

⁴ Ватина А.Е. Особенности семантики бисубстантивных предложений с нейтрально оценочным значением // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Русская филология, 2022. – №1. – С. 11.

⁵ Одилов Ё. Глобализм даври публицистикаси тилининг тараққиёти. Монография. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – С. 117.

niyat talabi bilan nutq vaziyatida ijobiylashtiradi, ammo ana shu jarayonni – til birligining ijobiy baho (salbiy baho ham) kasb etishini lingvistik asoslash ham kerak. Boshqacha aytganda, sof lingvistik jihatdan til birligi qanday ijobiy baho (salbiy baho ham) kasb etadi degan savolga javob berib o'tish zarur. Odatda, neytral baholi til birliklari o'zlariga avvaldan xos bo'lib qolgan neytral kontekstdan tashqariga chiqib, maqtov, tahsin o'qish, hurmatlash, ma'qullash mazmunli kontekstlarda qo'llana boshlashi bilan bahosini ijobiylashtiradi. Har qanday baho o'zgarishi oldin individual qo'llash sifatida boshlanadi va keyinchalik umuman til sistemasiga xos xususiyatga ega bo'ladi. Garchi neytral bahoning ijobiylashuvi kundalik nutqdan boshlansa ham, ammo bu hodisaning eng original ko'rinishlari badiiy adabiyot orqali yuzaga keltiriladi. Bir tip baho ijobiylashuvining xalq ommasi tiliga yoyilishi ham badiiy adabiyotning ommaviylik xususiyati bilan bog'liq hisoblanadi. Kishilar badiiy matnda yozuvchi-shoir tomonidan baho ijobiylashuvi ko'rinishlari bilan tanishish asnosida ularni o'z nutq faoliyatiga ham ko'chiradi. Bu kabi baho o'zgarishlari bilan muntazam tanishib borish til egalarining o'z nutqiy faoliyatida ham lisoniy birlik bahosini ijobiylashtirib yoki salbiylashtirib ishlatish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Adresantning bunday ko'nikmaga ega bo'lishi har bir til egalariga xos xususiyat hisoblanadi.

Tilda neytral bahoning ijobiyga o'zgarishi nutq vaziyatida amalga oshishi asosiy manba hisoblanadi. Ushbu fikrni lingvistik jihatdan aniqlashtirib izohlaydigan bo'lsak, neytral bahoning ijobiylashuvida nafaqat o'sha til birligining semantikasi, shu bilan birga o'sha til birligining oldida kelgan so'z va iboralarning ham ta'siri bo'ladi. Yangi bahoni yuzaga keltirish mexanizmi shunday bo'ladi. Shu ma'noda neytral baholi ma'lum bir so'z ijobiy bahoga ega bo'lishi uchun har jihatdan qulay sintaktik qurshovda qo'llanishi kerak. Odatda, ijobiy emotsiyali so'zlar bahosi ijobiylashayotgan so'zdan oldin keladi, ba'zan esa undan keyin ham ishlatilishi mumkin. Masalan, *“little devil”* birikmasi ingliz tilida yosh bolalarga nisbatan erkalash mazmunida ishlatiladi. *“Devil”* so'zining ijobiy tushunilishiga undan oldin kelgan so'zning ta'siri bor.

O'rni kelganda neytral bahoning ijobiylashuvi jarayonini salbiy bahoning ijobiylashuvi jarayoni bilan adresantga ta'siri darajasi hamda idrok qilinish imkoniyatlarini ham qiyosan tahlil qilib o'tish maqsadga muvofiq. Har qanday tilga oid neytral baholi so'zda baho ijobiylashuvi yuz berganda bunday baho ijobiylashuvining adresat/o'quvchiga ta'siri har qanday tildagi salbiy baholi so'zdagi baho ijobiylashuvida ma'lum darajada ta'siri kamroq bo'ladi. Bunday ta'sir darajasining kamligi insonning avvalgi hamda hozirgi bahoni qiyoslash jarayoni va so'z semantikasi bilan muayyan darajada bog'liq.

Boshqacha aytganda, adresant amalga oshirgan baho ijobiylashuvining mohiyatini tushunish adresat/o'quvchining bahosi ijobiylashgan so'z semantik strukturasi haqida unda mavjud tasavvurlarning yetarli yoki yetarli emasligiga bog'liq. Agar adresat/o'quvchida bahosi ijobiylashgan so'z semantik strukturasi haqida yetarlicha tasavvur bo'lsa, uning idrok qilinishi murakkab bo'lmaydi. Aksincha bo'lganda esa baho ijobiylashuvini idrok qilish murakkablashadi yoki tugal idrok qilinmaydi. So'zning ta'sir quvvati ham shunga yarasha bo'ladi.

Subyektiv bahoning shakllanishida predmetning fizik xususiyatlarini ifodalovchi neytral birliklarning inson xarakteristikasiga ko'chishi ham muhim o'rin tutadi. Xususan, o'zbek va ingliz tillari qiyosida *“temir”* leksemasining neytral moddiy tushunchadan yuksak ijobiy baho ifodalovchi vositaga aylanishini kuzatish mumkin. *“Temir”* so'zi o'zining birlamchi lug'aviy

ma'nosiga ko'ra tabiatdagi qattiq metallni ifodalovchi neytral nomdir. Biroq, bu metallning "mustahkamlik", "baxshilik" va "chidamlilik" kabi fizik xossalari insonning ruhiy olamiga proyeksiyalanadi. Natijada, *"temir iroda"*, *"temir intizom"* kabi birikmalar yuzaga kelib, ular insonning qat'iyati va ma'naviy kuchiga nisbatan yuksak ijobiy bahoni ifodalaydi. Ushbu jarayonda "temir" so'zi shunchaki qattiqlikni emas, balki so'zlovchi tomonidan tan beriladigan, hurmat qilinadigan va namunali deb hisoblanadigan subyektiv sifatni anglatadi. Masalan, *"Unda temir intizom shakllangan"* deyilganda, so'zlovchi subyektning tartiblilikiga o'zining ijobiy subyektiv munosabatini pragmatik tarzda yuklaydi.

Ta'kidlash lozimki, til birligining baho tomonidagi mazkur o'zgarish – neytral bahoning ijobiylashuvi garchi bir til birligi misolida amalga oshayotgan bo'lsa ham, aslini olganda, umuman, til strukturasiga tegishli bo'lgan, tilning dinamik, kontekstual bog'liq bo'lgan va intersubyektiv tabiatini ifodalay oladi. Neytral bahoning ijobiylashuvi kabi semantik siljishlar, ya'ni bahoviy neytrallikdan ijobiy konnotatsiyaga o'tish, asosan, muloqot ishtirokchilarining kommunikativ ehtiyoji, so'zning emotsional ta'sir kuchini oshirish hamda stilistik ifoda vositalarini boyitish zaruratidan kelib chiqadi.

Neytral bahodan ijobiylashgan ifodalar har qancha original, nutqda ko'p uchraydigan bo'lmasin, baribir, avvalgi umumiy semantikasidan uzilib ketmaydi, avvalgi doimiy bahosida tamomila begonalashib ketmaydi. So'z yoki frazeologizmning asos semasi yoki bahosi oz bo'lsa-da, okkazonal baho ortida turadi, saqlanib qoladi. Adesant/adresantning yangi, kutilmagan tarzda munosabat ifodalashga intilishi neytral bahoni imkon qadar ijobiylashtirib taqdim qilinishiga olib keladi. Xususan, *"Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroyli"* maqolida *mehnat* so'zi neytral bahosini xiralashtirib, ijobiylashish tomon yo'nalgan bo'lsa ham, baribir, uning semantikasida qo'l mehnati yoki jismoniy ish semasi saqlanib qolgan. Ushbu shior sobiq ittifoq davrining mahsuli bo'lib, unda mafkura talabi bilan *mehnat* so'zi semantikasi shu kabi shior hamda maqollar orqali ijobiy baho singdirilgan.

Tilda neytral bahoning ijobiylashgan holda ifodalanishi yozma va og'zaki nutqlarga birday aloqador hodisa sanaladi. U yozma va og'zaki nutq shakllarida bir-biriga o'xshamagan shakllarda faol kuzatiladi. Masalan, nutqning har ikkala turida neytral semantikasi bo'lgan biror so'z ko'pincha intensifikator sifatida ishlatiladi va kontekstdan kelib chiqib, ijobiy bahoni ifodalovchi komponentga aylanishi mumkin. Xususan, *"dahshat chiroyli"*, *"dahshat zo'r"*, *"dahshat katta"* kabi birikmalarda *dahshat* so'zi bahosining ijobiylashuvi ko'pincha og'zaki nutqqa xos hisoblanadi. O'zbek tilida so'zlashuv nutqida juda keng uchraydi. Bunday qilib bahoni ijobiylashtirib qo'llash uchun adresant katta mehnat ham qilmaydi, chunki u kundalik so'zlashuv jarayonida, O'zbekistonning qayerida yashashidan qat'i nazar, tez-tez eshitgan. Ana shu nutqiy odatga aylanganligi o'zbek tili egasidan og'zaki nutqida bunday baho ijobiylashtirishga murojaat qilishiga sababchi bo'ladi. Ammo bu degani yoshidan qat'i nazar barcha o'zbek tili egalariga tegishli ekanligini anglatmaydi, asosan yoshlar kundalik so'zlashuvda kuzatiladi.

Neytral bahoning muvofiq nutq vaziyatida ijobiylashuvi jarayonida har doim subyektiv komponent mavjud bo'ladi. Adesantning nutq obyektiga bo'lgan munosabatidan shakllanadigan ushbu unsur alohida so'z, frazeologizm, birikmalar misolida lisoniy ko'rinish oladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, bir tildagi neytral bahoning ijobiylashuvi so'z darajasida amalga oshsa, ikkinchi tilda ham so'z darajasida neytral bahoning ijobiylashuvi yuz berishi shart emas. Aksariyat hollarda turli tillarda so'z darajasida yoki frazeologizm darajalarida

neytral bahoning ijobiylashuvi kuzatiladi. Mazkur holatning sababi sifatida turli tillar egalarining munosabat ifodalash tarzlarida umumiylik borligi bilan izohlanadi. Buni yuqoridagi misollarimiz tahlillari asoslay oladi. Ammo juda kam holatlarda bir tildagi soʻz darajasida baho ijobiylashuvi boshqa tilda frazeologizm bilan amalga oshishi ham mumkin. Ushbu noodatiy holatning sababi qilib til egalarining nutqiy odatlarini koʻrsatish maqsadga muvofiq boʻladi.

Neytral bahoning ijobiylashuvi adresat/adresantning oʻz fikrini kuchliroq, taʼsirchanroq ifodalash istagi bilan amalga oshadi. Bunga erishishda unga maʼlum bir darajada soʻzlarning bahosini oʻzgartirib qoʻllash tajribasi kerak boʻladi. Shuningdek, sotsiolingvistik qoidalarga ham amal qilish, boshqacha aytganda, jamiyatda qabul qilingan stilistik normalarga mos boʻlishi talab etiladi. Neytral bahoning ijobiy bahoga oʻzgarishi natijasida emotsionallik ham paydo qilinadi, adresantning his-tuygʻulari aniqroq yetkaziladi, nutq oddiy shaklda emas, semantik rang-baranglikda ifodalanadi. Bahoning bu kabi oʻzgarishi shundayligicha tugamaydi, balki nutqiy vaziyat ham oʻzgaradi. Chunonchi, rasmiy nutq tarzi maʼlum maʼnoda norasmiy tus oladi, doʻstona kayfiyat paydo boʻladi. Shu tariqa neytral baho ijobiylashib, tilning kontekstual semantik-uslubiy imkoniyatlarini namoyon etadi.

Maʼlumki, tilning neytral baholi birliklari har bir soʻz turkumining asosiy qismini tashkil etadi. Aniq pragmatik maqsadga koʻra ularning baho ijobiylashuviga uchrashi barcha soʻz turkumlarining neytral baholi birliklari bilan ham amalga oshmaydi. Koʻpincha sifat, oʻrni bilan ot, feʼl turkumlaridagi tegishli neytral baholi soʻzlarning bahosidagina ijobiylashish yuz beradi.

Baʼzan sifatdosh shaklidagi feʼllar ham sifat soʻzlardek xususiyatga ega boʻladi va neytral bahoning ijobiylashuvida ishtirok etadi. Jumladan, *arzimagan* soʻzi quyidagi kontekstda neytral bahosini ijobiy bahoga almashtirgan: *Shunaqa-ku, chinakam badiiy asarni yaratish uchun "arzimagan" narsa – Xudo bergan talant kerak.* (Oʻ.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar). Neytral bahoni ijobiylashtirish jarayonida kategorial asosiy vosita vazifasini ironiya bajargan. Bu oʻrinda neytral baho ijobiylashuvining muhim pragmalingvistik xususiyati "har qanday aqli butun tinglovchi yoki kitobxon yuqoridagi "arzimagan narsa" deb baholanayotgan "Xudo bergan isteʼdod"ni "arzimas narsa" tarzida qabul qilmasligi, balki "rosmana arziydigan narsa" sifatida idrok etishida koʻrinadi. Bu kabi maʼnoni idrok etishda ham tinglovchida hech qanday murakkablik yoki aqliy zoʻriqish sezilmaydi. Aksincha, bundan soʻzlovchi ham, tinglovchi ham estetik zavq oladi"⁶.

Baholashning pragmalingvistik xususiyatlari uning kognitiv va aksiologik jihatlarini rad qilmaydi. Boshqacha aytganda, neytral bahoning ijobiylashuvida ham pragmalingvistik xususiyatlarida maʼlum darajada kognitiv va aksiologik jihatlar aks etadi. Ushbu bogʻliqlik A.S. Korolkova tomonidan ham aytilgan edi. Olima yana shuni ham taʼkidlaydiki, baholash maʼlum maʼnoda konseptuallashtirish ham hisoblanadi. Baholash konseptuallashtirish jarayonida maʼnoning tarkibiy qismiga aylanishi mumkin, yaʼni til egasi ongida voqelikning muayyan bir parchasiga oid barqaror tasavvur shaklida ifodalanadi⁷. Lisoniy konseptuallashtirishni til birliklarining inson tafakkurida qanday tushunchaviy modellarga asoslangan holda shakllanishi va idrok etilishini ifodalovchi kognitiv jarayon deb tushuniladigan boʻlsa, til orqali insonlar nafaqat axborot uzatadi, balki atrof-muhit, ijtimoiy

⁶ Одилов Ё. Ўзбек тилида лексик ва фразеологик энантиосемия. Монография. – Тошкент: "Tafakkur" nashriyoti, 2015. – Б. 36.

⁷ Королькова А.С. Способы передачи негативной прагматической оценки концептуальной сферы «здоровый образ жизни» в блогосфере // Медиалингвистика. 2020. Том 7, № 1. – С. 85-86.

hodisalar va psixologik holatlarni o'ziga xos tarzda konseptual asosda ifodalashi ma'lum bo'ladi. Baho almashinishi ham konseptuallashtirish jarayoniga tortiladi. Bunda inson ongida avval tegishli so'zning neytral bahosi idrok qilinadi va ijobiy ma'noda tegishli so'zga qayta birlashtiriladi.

Yuqoridagi fikrni pragmatik jihatdan neytral bahoning ijobiylashuvi misoli bilan ham tushuntirish mumkin. Pragmatik jihatdan lisoniy konseptuallashtirish deganda til birliklarining (so'z, ibora, jumla) aniq nutq vaziyati yoki kontekstida qanday semantik, konnotativ va illokutiv yuklama bilan idrok etilishi va ishlatilishi tushuniladi. Bu kognitiv-pragmatik jarayon adresantning maqsadiga, ijtimoiy-madaniy muhitga hamda adresat/tinglovchi bilan o'zaro munosabatga bog'liq holda amalga oshadi.

Boshqacha aytganda, konseptuallashtirish til birliklarining faqat lug'aviy ma'nosi bilan emas, ma'no orqali qanday kommunikativ niyat, qanday illokutiv kuch (buyurish, e'tirof etish, tahqirlash, iltimos qilish kabilar) va qanday perlokutiv ta'sir (masalan, xayrixohlik uyg'otish, fikrni o'zgartirish, fikrni rad etish) hosil bo'lishi bilan aniqlanadi. Masalan, neytral baholi *qul* so'zi turli kontekstlarda qo'llanib, turli baholarda namoyon bo'ladi: "*Ey yor, men sevgimning quliman*" gapida "yoriga bo'lgan muhabbatiga sadoqatlilik timsoli" ma'nosida neytral baho ijobiyga almashgan. Shuningdek, diniy nutqda "*Allohning quli*" birikmasi tarkibida *qul* so'zi "Alloh taolaga imon keltirgan chin mo'min timsoli", "itoatkorlik va taqvodorlik ramzi" bo'lib keladi va ijobiy baholi bo'ladi. Mazkur so'zning neytral bahosi tanqid ruhida matnlarda salbiylashuvi ham mumkin. Jumladan: "*G'ofil banda nafsining quli bo'lib qolganini bilmaydi*" gapida salbiylashgan bahoda kelib, kamsituvchi so'z sifatida ishlatilgan.

Qul so'zi bilan bog'liq pragmatik konseptuallashtirish barcha tillarda birday bo'lmaydi. Ikkinchi diniy kontekstdagi baho ijobiylashuvi G'arb lingvomadaniyatida deyarli uchramaydi. Xususan, ingliz tilida "qul" ma'nosida "slave" so'zi mavjud. Mazkur so'z G'arb lingvomadaniyatida asosan inson huquqlarining poymol qilinishi, zo'ravonlik, xo'rlik, irqiy kamsitish singari salbiy konnotatsiyalar bilan bog'liq holda qo'llanadi. Adresant har qancha harakat qilmasin, "slave" so'zi o'zbek tilidagidek bahosini almashtira olmaydi.

Sharq madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan o'zbek lingvomadaniyatida, xususan, islomiy aqidada "qul" so'zi ijobiy bahoda namoyon bo'lib, ma'naviy, axloqiy barkamollikka ishora qiladi. Allohga itoatli insonni fazilatini sifatlaydi. O'zbek tilidagi ismlarda "abdu" komponentining mavjudligi (Abdukarim, Abdurahim, Abduqodir kabilar) shu sabablidir. *Qul* so'zi bahosi ijobiylashganda yuksak axloqiy fazilat sifatida konseptuallashtiriladi. Demak, bu o'rinda pragmatik konseptuallashtirish *qul* so'zining tafakkurdagi "ma'nosi" emas, balki aniq kommunikativ faoliyatda amal qilishi hisoblanadi. Pragmatik tahlilda *qul* so'zi orqali nima deyilib, nima nazarda tutilmoqda va nazarda tutilgan narsa adresat/tinglovchiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda" degan savollarga javob beradi.

Yuqoridagi tahlillarimizga asoslanib aytadigan bo'lsak, neytral bahoning ijobiylashuvi har bir tilga xos universal hodisa hisoblanadi. Ushbu hodisaning lisoniy tabiatini pragmatik xususiyat belgilab turadi. Zero, nutq vaziyati va adresant tushunchalarisiz neytral bahoning ijobiylashuvini (baho salbiylashuvini ham) tushuntirib bo'lmaydi. Tillarda neytral baholi birliklarini ijobiylashtirishning o'z mexanizmlari bo'ladi. Bular qatoriga neytral baholi so'zlarni maqtash, hurmatlash, ma'qullash mazmunli kontekstlarga olib kirish usuli, bahosi ijobiylashayotgan so'zdan oldin yoki keyin emotsional ijobiy til birliklarini qo'llashni kiritish mumkin.

Neytral baho ijobiylashuvi yuz berganda adresantning asosiy munosabati o'sha so'zda turadi. Kontekst ma'lum ma'noda bahosi ijobiylashgan so'z atrofida uyushadi. Adresant uchun bahosini ijobiylashtirgan so'z kontekstdagi fikrning ta'sirli yetkazilishida muhim gap bo'lagi hisoblanadi. Neytral bahoni ijobiylashtirishni maqsad qilgan adresant o'z maqsadiga mos keladigan sintaktik qurshovni hosil qiladi. Maqsadga muvofiq hosil qilingan kontekst okkazonal bahoning aniq va ishonchli ifodalanishiga xizmat qiladi, adresantning nutq obyektiga nisbatan subyektiv munosabati ham ta'sirchan ifodalanadi.

Shunday qilib, neytral baholi so'zlar til tizimida obyektiv va markaziy bahoni ifodalovchi birliklar bo'lib, nutq vaziyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy tomonga siljish xususiyatiga ega. Ularning ijobiylashuvi asosan adresantning kommunikativ niyati, kontekst va ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida yuzaga keladigan pragmalingsvistik jarayondir. Shu bois neytral bahoning ijobiylashuvini to'g'ri anglash uchun lisoniy birliklarning nafaqat semantik, balki nutqiy, kognitiv va aksiologik xususiyatlarini ham kompleks tahlil qilish zarur.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Арутюнова Н.Д. Об объекте общей оценки // Вопросы языкознания, 1985. – №3. – С. 5.
2. Емельянова Ю.И. Способы выражения оценки в научном лингвистическом дискурсе (на примере публикаций 30-х гг. XX в.) // Вестник ЧГПУ, 2010. – №2. – С. 213.
3. Ватина А.Е. Особенности семантики бисубстантивных предложений с нейтрально оценочным значением // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Русская филология, 2022. – №1. – С. 7.
4. Одилов Ё. Глобаллашув даври публицистикаси тилининг тараққиёти. Монография. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – С. 117.
5. Одилов Ё. Ўзбек тилида лексик ва фразеологик энантиосемия. Монография. – Тошкент: "Tafakkur" nashriyoti, 2015. – Б. 36.
6. Королькова А.С. Способы передачи негативной прагматической оценки концептуальной сферы «здоровый образ жизни» в блогосфере // Медиалингвистика. 2020. Том 7, № 1. – С. 85-86.